

ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA MA'NAVİY-MARIFIY ISHLARNING BUGUNGI KUNDAGI HOLATI

Toshpo'latov Islom Otovullo o'g'li

Jizzax viloyati IIB MMI va KBTX YIBG katta inspektori katta leytenant

E-mail: itoshulatev@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10317141>

Xalqimiz qadim-qadimdan ma'naviyati baland va ma'rifatli bo'lishga intilgan. Nafaqat shaharlarda, qishloqlarda ham masjid va madrasalarda diniy va dunyoviy bilimlar berilgan. Tarixiy manbalarda buyuk bobokalonimiz Amir Temur, shuningdek, Bobur va boshqa sarkardalar sipoxilarning ma'naviyatini oshirish uchun turli tadbirlar o'tkazishgan, har bir jangchining savodli, ma'rifatli bo'lishiga e'tibor qilishgan. Ana shundan kelib chiqib, xalqimiz insonlarning ma'naviyatli va ma'rifatli bo'lishi uchun hamma davrlarda ham imkoniyatlarini ishga solganlar deyishimiz mumkin.

Bugungi kunga kelib qadimdan davom etib kelayotgan bu an'ananing ahamiyati yanada oshdi. Yurtboshimiz har bir fuqaroning yuksak ma'naviyatli va ma'rifatli bo'lishi uchun qator Farmon va Qarorlar qabul qilgani fikrimizning yaqqol dalilidir.

Barcha sohalar kabi ichki ishlar tizimida ham ma'naviy-ma'rifiy ishlarning muntazamligini ta'minlash uchun dastur belgilanib, uning ijrosini ta'minlashga katta e'tibor berilmoqda. Ichki ishlar organlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlar «Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish — oliy burchimiz!» konseptual g'oyasi asosida tashkil etilib, unda davlat mustaqilligini himoya qilish, huquq-tartibotni mustahkamlash, jamoat xavfsizligini ta'minlash hamda fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini muhofaza qilish ustuvor vazifa sifatida belgilanganligini inobatga olib, doimiy ravishda xizmat vazifasini mazkur g'oya asosida tashkil etishlari belgilab olingan. Shu bilan birga viloyat Ichki ishlar boshqarmasi va shahar-tuman IIBlarida o'tkazib kelinayotgan «Ma'naviyat va ma'rifat» darslari bo'yicha viloyat va shahar-tuman Ma'naviyat va ma'rifat markazlarining rahbarlari bilan hamkorlikda chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilib, bir qator tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi IIVning 2021 yil 1 oktyabr kungi Farmoyishiga asosan «Xodimbay» ishlash tizimining yangi 2-bosqichi bo'yicha, viloyat Ichki ishlar organlari tarkibiy tuzilmalari hamda xududiy bo'linmalari boshliqlarining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosarlari hamda boshqarma sohaviy xizmat rahbarlari tomonidan «Xodimbay» ishlash tizimi orqali ma'naviy-ma'rifiy ishlar olib borilmoqda.

Shaxsiy tarkib orasida qonunchilik, xizmat intizomini mustahkamlash maqsadida fuqarolar bilan doimiy ravishda muloqotda bo'layotgan, ta'magirlikka yo'l qo'yish extimol katta bo'lgan tergov, jinoyat qidiruv, migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish, yo'l harakati xavfsizligi xizmati, jamoat tartibini saqlash xizmati, huquqbuzarliklar profilaktikasi xodimlari ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida ushbu xizmatlarning birinchi rahbarlari mas'uliyati va javobgarligini oshirish yuzasidan qattiq ogohlantirildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi IIVning 2021 yil 21 oktyabr kungi buyrug'i hamda 2021 yil 1 oktyabr kungi Farmoyishiga asosan «Xodimbay» ishlash tizimining yangi 2-bosqichi bo'yicha, barcha darajadagi rahbarlar qo'l ostidagi shaxsiy tarkib bilan individual tarbiyaviy-profilaktik ishlarni olib borishlari belgilab berildi.

Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch degan ibora bor. Ma'naviyati boy, ma'rifatli inson turli xil ig'vo, tuxmat, tartibbuzarlik, qonunbuzarliklardan nari yuradi, atrofdagilarni ham ogohlikka

chaqiradi. Bu ichki ishlar organi xodimi uchun eng zarur xislat. Shuning uchun ham biz har bir xodimning ma'naviyatini yuksaltirish va ma'rifatli bo'lishlariga erishiga harakat qilyapmiz.

Ilm-fan rivoji yil sayin insonning tabiat ne'matlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirib, yashash sharoitlarini qulaylashtirmoqda. Ayni shu taraqqiyot tafakkurga ta'sir o'tkazuvchi salbiy omillarning keskin ortishiga ham sabab bo'ldi. Jumladan, ma'lumot olish, bilimlarni boyitish, xabar almashinuvida muhim ahamiyat kasb etayotgan ijtimoiy tarmoq qonxo'rlik, fahsh, axloqsizlik kabi tuban illatlarning targ'ibot vositasiga aylandi. Mazkur tarmoq qaysidir ma'noda inson ongini boshqaruvchi, odamiylik va qadriyatlardan mosuvo manqurtlarni tayyorlovchi qurol darajasiga yetdi, desak adashmaymiz.

Ushbu jihatlar dunyo ahlini turli nomaqbul g'oya va qarashlardan himoyalashga, shuningdek ezgu fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni kuchaytirishga undamoqda. Chunonchi, Vatanimiz Mustaqilligi va taraqqiyoti, aholi tinchligi va farovonligiga oid maslak va muddaolarimizni ifodalovchi milliy g'oya targ'iboti borasida qator samarali ishlar amalga oshirilayotir. Ayni maqsadda keng omma o'rtasida, shuningdek tizimlar kesimida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar muntazam o'tkazilayapti. Xususan, ichki ishlar organlari sohasida ham. Tabiiyki, bu yo'nalishdagi ishlar sifati tegishli tashkilotlar tomonidan tahlil qilib boriladi.

Bu jarayonda respublikamiz Prezidentining ma'naviy-ma'rifiy sohaga oid farmon, qaror va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va davlat dasturlarining tegishli bandlarining ijrosini ta'minlash, ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy masalalarga doir ish rejasining bajarilishi, ma'naviyat-ma'rifat xonalarida yaratilgan sharoitlar, shaxsiy tarkibni badiiy adabiyotlar bilan ta'minlash kabi qator masalalarga e'tibor qaratildi. Shuningdek, mas'ul tashkilotlar bilan hamkorlik darajasiga baho berildi.

— Ma'naviy-ma'rifiy ishlarining xodimlarning Vatanga muhabbati hamda burchiga mas'uliyatini oshirishda, xizmat intizomi va qonuniylikni mustahkamlashdagi ahamiyatini inobatga olgan holda ma'naviyat va ma'rifat darslari, qutlug' sanalar bilan bog'liq tadbirlarning sifatli uyushtirilishiga alohida e'tibor qaratayapmiz, — deydi¹.

Aytish joiz, misol uchun Jizzax viloyati Mirzacho'l tumani viloyatning chekka hududi bo'lishiga qaramasdan madaniy-ma'rifiy muassasalar borasida markazlardan qolishmaydi. Chunonchi, ishchi guruhi Jizzax viloyatida bo'lib turgan vaqtda Mirzacho'l tumani markazi Gagarin shahrida "Kosmanavtlar muzeyi"ning ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Mazkur tadbirda Rossiya Federatsiya Davlat dumasining Mudofaa qo'mitasi raisi Vladimir Shamanov boshchiligida "Rossiya qahramonlari assotsiatsiyasi" Butunrossiya jamoat tashkiloti delegatsiyasi tashrif buyurdi. Tadbirda Vladimir Shamanov, kosmonavtlar Vladimir Jonibekov, Solijon Sharipov va boshqalar so'zga chiqib, muzeyga esdalik sovg'alari topshirishdi. Shu kuni Jizzax viloyati Mirzacho'l tumani IIB shaxsiy tarkibining muzeyga sayohati uyushtirildi. O'rganish davomida tarbiyaviy ishlar yo'nalishidagi rejalarining bajarilishi, ma'naviyat va ma'rifat darslarining o'tilishi, shaxsiy tarkibning konsert, teatr, muzey va tarixiy obidalarga sayohati, "Vatanparvarlik oyiligi" doirasida o'tkazilgan tadbirlar, targ'ibot materiallarining davlat tili me'yorlariga mosligi diqqat markazida bo'ldi. Shuningdek, xizmat intizomini mustahkamlash, korrupsiyaga qarshi kurashish, xodimlarning ota-onalari va oila a'zolar bilan o'tkazilayotgan muloqotlar, davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlik kabi masalalarga e'tibor qaratildi.

Yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini kuchaytirish va ichki ishlar organlarining nufuzini oshirish maqsadida tashkil etilgan ushbu tadbir avvalida, yurtimizda aholini ijtimoiy-qo'llab

¹ Mirzacho'l tumani IIB boshlig'ining tarbiyaviy ishlar bo'yicha o'rinbosari, mayor Furqat Djabbarov

quvvatlash, xususan yoshlarning bilim olishlari, kasb egallashlari va ularning bandligini ta'minlash borasidagi o'zgarishu yangiliklar yotibdi. Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligi va osoyishtalikni ta'minlash borasidagi o'rni ham tilga olindi.

Bu jarayonda xodimlarning huquqiy bilimlarini oshirish, dunyoqarashini kengaytirish, yot ta'sirlarga nisbatan immunitetini kuchaytirishga qaratilgan tadbirlar sifatini o'rgandik. Aytish mumkinki, mazkur yo'nalishda viloyatda zaruriy sharoitlar yaratilgan va yaratilmoqda. Ma'naviy-ma'rifiy bilimlarni baholash maqsadida ichki ishlar bo'limlarida yosh xodimlar, shuningdek ularning murabbiylari bilan suhbatlar o'tkazdik, o'rnatilgan bannerlar va yuritilayotgan ish hujjatlari bilan tanishdik. Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar samaradorligini oshirishga qaratilgan anonim so'rovnomalar uyushtirildi. Har bir o'rganish natijasiga ko'ra mas'ullarga taklif, tavsiya va topshiriqlar berildi. Maqsadimiz xalqimizning, shu jumladan ichki ishlar organlari xodimlarining ma'naviy daxlsizligini asrash, shu orqali ularning Vatanga muhabbati va sadoqatini kuchaytirishdir.

Tarbiyaviy ishlar vatanparvarlik, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, oilaviy-maishiy tarbiya hamda yakka tartibdagi tarbiyaviy chora-tadbirlardan iborat.

Xodimlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash doirasida ularda Vatanga sadoqat, kasbiga nisbatan g'urur hissini shakllantirish, jamoat xavfsizligi va qonun ustuvorligini ta'minlash uchun har qanday huquqbuzarlikka qarshi kurashishda shaxsiy mas'uliyatni oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar o'tkazib boriladi;

ijtimoiy-siyosiy tarbiya doirasida xodimlarga ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qonunchilik hujjatlari, davlat dasturlarining mazmun-mohiyati tizimli ravishda yetkazib boriladi hamda ularda dunyoda va yon-atrofimizda sodir bo'layotgan globallashuv jarayonlariga nisbatan ongli munosabat va faol hayotiy pozitsiya shakllantiriladi;

ma'naviy-ma'rifiy tarbiya o'z ichiga milliy merosimizning tarixiy ildizlarini o'rganish, Vatan ozodligi yo'lida qahramonlik ko'rsatgan buyuk ajdodlarimiz va jasur zamondoshlarimizning ibratli umr yo'lini keng targ'ib etish tadbirlarini qamrab olib, xizmat burchini bajarish bo'yicha qat'iy hayotiy e'tiqodni qaror toptirishga qaratiladi;

oilaviy-maishiy tarbiya doirasida xodimlarning oila a'zolari bilan uzviy bog'liqligini ta'minlash, ular tomonidan xodimlarga kasbiy burchini bajarishga ruhiy ko'maklashishga qaratilgan tadbirlar o'tkaziladi;

yakka-tartibdagi tarbiyaviy ishlar xodimlarda kasb uchun zarur bo'lgan shaxsiy fazilatlarni shakllantirishga, ularni xizmat intizomi va qonunchilikka qat'iy rioya etishga yo'naltiradi.

Tarbiyaviy yo'nalishda xodimlarning ongi va tafakkuriga kuchli ta'sir ko'rsatadigan, qalbiga yetib boradigan, kayfiyatini ko'taradigan, yangi marralar sari ilhomlantiradigan hamda zamonaviy axborot va targ'ibot texnologiyalarini qo'llagan holda ta'sirchan ruhda o'tkaziladigan tadbirlar tashkil etiladi.

References:

1. 2016-yil 16-sentabrdagi "Ichki ishlar organlari to'g'risidagi" qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6196-son Farmoni
3. Muratovich M. R., Rajaboevich I. A. HARBIY XIZMATCHILARNING KASBIY ONGINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHDA UZLUKSIZ JARAYON SIFATIDA //PEDAGOGS

jurnali. – 2023. – T. 36. – №. 1. – C. 32-34.

4. t/me.Chat GPT AI



INNOVATIVE
ACADEMY